

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MILLIY SERTIFIKATNING AHAMIYATI

Sharipova Durdona

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Anatatsiya: ushbu tezisda bugungi kunda O'zbekistonda bir necha marotaba imtihon test topshiriqlari o'tkazilgan milliy sertifikat tizimini yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz . Shuningdek eski va yangi milliy test tizmida qanday farqli jihatlar mavjud ? savoliga javob topamiz.

Kalit so'zlar:sertifikat, online,harakatlar strategiyasi, yengilliklar, test, Rash modeli, kadrlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7- fevraldag'i farmoni bilan 2017- 2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Shu asnoda albatta ta'lismi rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar qabul qilindi. Bunga misol qilib Vazirlar mahkamasining 2020- yil 12 – oktabrdagi 646 – sonli qarori bilan bosqichma bosqich umumta'lim fanlarini bilishning milliy test tizimi joriy qilindi. Bugungi kunga qadar ushbu test tizmi o'zoning 2 rivojlanish bosqichini ko'rdi. 2024- yil 17 – yanvardagi qaror bilan Vazirlar mahkamasining eski sertifikat baholash tizimi bekor qilinib o'rniqa test natijalari xalqaro metodika – Rash modeli asosida hisoblanadi. Bu test tizmizi qanday uslubda baholanmasin shu fanga qiziquvchi barcha qatlam: muktab o'quvchilari va o'qtuvchilari, mustaqil shu fanga qiziquvchilar uchun mo'jjallangan. Test sinovini topshirishdan oldin unga kirish uchun ma'lum miqdorda to'lov amalga oshiriladi. Bu Bilimlarni baholash agentligi tomonidan test sinovlariga qabul ochilgan kundan boshlab qo'llaniladi. Va to'lov borasida 1, 2- guruh nogironligi bor shaxslar uchun belgilangan miqdorda yengilliklar mavjud. Hamda sertifikat muddati 3 yilni tashkil etadi.

Milliy sertifikat- asosan foydali ustuvorligi maktab bitiruvchilari , abituriyentlar uchun bo'ldi.Chunki undan belgilangan miqdordan ball yig'a olgan o'quvchilar uchun DTM bakalavr imtihonlariga ball qo'shib beriladigan bo'ldi. Xususan , 2020-yildan qo'llanilgan sertifikat tizmidagi baholashdan 100 ballik sistemada 60% dan oshgan talabgorlar sertifikatga ega bo'lilar.

1.O'quvchiga bu nima beradi? Agarda abituriyentlar 100 ballikda 86 % dan oshira olsalar unda ular topshirayotgan fanni maksimal darajasida balga ega bo'ladi. Masalan, siz TDPU tarix fakultetiga tarix yo'nalishi bo'yicha test topshirdingiz va bunda 1 - blokingiz tarix hamda bu fandan milliy sertifikatga ega bo'lsangiz to'g'ridan- tog'ri 93 balga egasiz va davlat imtihonida test ishlamaysiz. Agarda 2 – blok geografiya va bu fandan ham 86 % dan yuqori sertifikatga ega bo'lsangiz ikkinchi blokning maksimal bali ya'ni 63 balga ega bo'lgan bo'lasiz.

2. 86 % dan past lekin 60% dan yuqori darajadagi sertifikat egalariga qanday imtiyozlar mavjud? Ular topshirayotgan fanidan maksimal bal emas balki , olgan baliga nisbatan proporsional balni oladilar. Lekin majburiy fanidan(tarix , ona tili, matematika)maksimal bal(11ball)ni oladilar.

3. O'qituvchilar uchun milliy sertifikat nima beradi ? 2022-yil 11-mayda qabul qilingan Xalq ta'limi rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturida umumta'lim fanlaridan milliy sertifikatga ega bo'lgan pedagog **kadrlarga** 20% (xalqaro tan olingan sertifikatlarga 50%) miqdorida ustama berilishi belgilangan. O'qituvchilar abituriyentlar singari 100 ballikdan 86% dan emas, balki 80 % dan oshsa maksimal darajasida sertifikatga ega bo'ladi va tegishli miqdorda ustama oladilar. Bu albatta o'qituvchilar uchun hamma darsliklarni mukkammal o'zlashtirishni talab etadi.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

Test shakli ochiq va yopiq testlardan iborat 45 ta savollar jamlangan. Nisbatan bakalavr imtihonidan murakkab bo'ladi. Unda 10 ta yozilishi kerak bo'lgan (36 dan 45 gacha) topshiriqlar mavjud. Hamda miliy testning ko'lami keng qamrovda bo'ladi.

Dastlab 2020-yil 1 – dekabrdan ona tili (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti) va matematika fanlari bo'yicha tashkil qilindi. 2021-yil 1 -fevraldan kimyo va bialogiya fanlaridan bo'ldi. 2022-2024 – yillardan fizika, geografiya va tarix fanlaridan yo'lga qo'yildi.

Umumta'lim fanlaridan bilish darajasini baholashning milliy test sinovlarini tashkil etish va umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan ta'lim sifatini baholash bo'yicha tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Shu asnoda milliy sertifikat tizimi O'zbekiton o'z o'rmini topa boshladi. Milliy sertifikat rivojining 2 – pog'onasi bu 2024 -yildan boshlandi. Vazirlar Mahkamasining tegishli (2024-yil 10-yanvardagi 17-son) qaroriga muvofiq, Milliy sertifikat imtihonida 65 balldan o'tgan abituriyent "A +, A" darajaga ega bo'ladi va OTMga kirishda o'sha fandan maksimal ballga ega bo'ladi. Yangi tartib joriy etilganidan keyin test natijalari xalqaro metod – Rash modeli asosida hisoblanadi.

Modelga ko'ra maksimal ball 100 ball emas, balki 75 baTest sinovida ishtirok etish uchun talabgorlarni ro'yxatga olish my.uzbmb.uz sayti ("Milliy sertifikat" bo'limi) orqali **onlayn** tarzda amalga oshiriladi. ll etib belgilanadi.

70	baldan	yuqori	ball	olgan	talabgorga	—	A+	daraja;
65	-	69,9	ball	olgan	talabgorga	—	A	daraja;
60	-	64,9	ball	olgan	talabgorga	—	B+	daraja;
55	-	59,9	ball	olgan	talabgorga	—	B	daraja;
50	-	54,9	ball	olgan	talabgorga	—	C+	daraja;
46 - 49,9 ball olgan talabgorga — C daraja								

A+ va A darajadagi sertifikat egasi tegishli fan bo'yicha maksimal balga ega bo'ladi.

B+, B, C+, C darajali sertifikat olgan abituriyentga mos ravishda maksimal ballga nisbatan proporsional ball beriladi.

Test sinovida ishtirok etish uchun talabgorlarni ro'yxatga olish my.uzbmb.uz sayti ("Milliy sertifikat" bo'limi) orqali **onlayn** tarzda amalga oshiriladi. Ro'yxatdan o'tishda talabgorlar o'zlariga qulay bo'lgan hududni tanlagan holda o'sha hududda test sinovlarida ishtirok etishlari mumkin.

O'qituvchilar uchun bo'lsa 65 % dan oshgan yani A va 70% dan oshgan darajadagi A+ darajasi uchun maksimal ustama qo'shiladi. e'tiborga molikki 2024 -yilgi qarorga muvofiq aynan tarix va ona tili fani o'qtuvchilari shu fanidan sertifikatga ega bo'lsalar 20% emas, 50 % ustama olishlari belgilandi. Bu tariximiz va ona tilimizga bo'lgan e'tibor va qadriyatdan darak beradi.

Xulosa. O'zbekiton umumta'lim tizimida Milliy sertifikat (Xalqaro baholashga o'tilgan Rash model) baholash dasturi mayjudligi abituriyentlarni vaqtidan oldin shu fan bo'yicha balga ega bo'lishini, qolgan vaqt davomida qo'shimcha fanlaridan davlat imtihoniga tayyorlanishga yordam bersa, o'qituvchilar uchun o'z ustida ishlashga, maktab darsliklarini yanada chuqr o'zlashtirishga undaydi . Bu tizim o'z mutaxasisligini chuqr bilgan pedagoglar uchun rag'batlantirish namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalaniman adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi — O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida^{ll}gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi —O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida^{ll}gi PF6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y. 06/20/6108/1483-son).
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi —Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida^{ll}gi PQ-4884-son Qarori.(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).
- 4.Lex. uz. On-line
- 5.My.gov.uz